

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISODULLAYEVA IQBOLOY SODIQJONOVNA

**TAYANCH-HARAKAT TIZIMIDA MUAMMOLARI BO‘LGAN
BOLALAR NUTQI USTIDA ISHLASHNING
KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARI**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K 376-056.264:81'271.12:616.7-053.2

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna

Таянч-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutqi ustida ishlashning
korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalari.....3

Исодуллаева Икболой Содикжоновна

Коррекционно-развивающие технологии работы над речью детей с
проблемами опорно-двигательного аппарата25

Isodullaeva Iqboloy Sodiqjonovna

Correctional and developmental technologies for working on the speech of
children with musculoskeletal disorders.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISODULLAYEVA IQBOLOY SODIQJONOVNA

TAYANCH-HARAKAT TIZIMIDA MUAMMOLARI BO‘LGAN
BOLALAR NUTQI USTIDA ISHLASHNING
KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6703 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudova Madina Sobirxonovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Gavhar Sapayevna
Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Arslonova Madinaxon Mansurovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi beruvchi
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____
soat____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail:
chdpi-kengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs
markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720
Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55;
faks: (99871) 712-45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

I.D.Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi p.f.f.d. (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi va tarbiyasini ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan korreksion-pedagogik strategiyalarni shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida modernizatsiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Bu mazkur toifa bolalar bilan olib boriluvchi tuzatish, sog'lomlashtirish jarayonlarini optimallashtirishni, adaptiv resurslar bilan ta'minlashni taqozo etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Dakar Deklaratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturiga ko'ra ta'lim nafaqat sog'lom bolalar uchun, balki o'ziga xos ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun ham ochiq va qulay bo'lishi lozim. Ushbu vazifa uzluksiz ta'limning har bir bosqichida korreksiya, kompensatsiya, profilaktika va rehabilitatsiyaga muhtoj bolalar uchun individual va differensial yondashuvlarga asoslangan ta'lim muhitini yaratish va ularning oilalariga tibbiy-psixologik, pedagogik, ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatini maqsadli hamkorlikda yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni hamda integrativ yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Dunyoda imkoniyati cheklangan bolalar qatorida tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashning sifatini oshirish, variativ ta'lim dasturlarini joriy etish, qulay va adaptiv ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Adaptiv ta'lim muhitida tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga nutqiy jihatdan tayyorlashning korreksion-kompensatsion metodik tizimini erta aralashuv va insonparvarlik tamoyillari ustuvorligida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Bu esa bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalari va innovatsion-pedagogik mexanizmlarini taqozo etadi. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda korreksion-rivojlantiruvchi metodik ishlarning pedagogik, psixologik, dagnostik jihatlarini takomillashtirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, tibbiyot birlashmasi va boshqa sektorlarning integratsion faoliyati muhim omil sanaladi. Shuningdek, nutqning leksik, grammatik tomonini vizual, audial, kinestetik ta'sir integratsiyasida rivojlantirish, bolalar uchun samarali muloqot muhitini adaptiv modellashtirish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimini moderinizatsiyalash, sog'lom bolalar qatorida tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va ijtimoiylashtirishning huquqiy me'yorlari takomillashtirilgan. "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlash, ularning nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodlarini tadqiq qilish dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur bolalarning og'zaki, bog'langan nutqini muloqot vositasi darajasida shakllantirishda oila va tashkilotdagi pedagogik-psixologik muhit hamda pedagoglarning innovatsion faoliyati muhim sanaladi. Bunda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarga asoslangan ta'lim va

sogʻlomlashtirish jarayonlarini manfaatli hamkorlikda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki tayanch-harakat tizimida muammolari boʻlgan bolalar nutqiy koʻnikmalarini intensiv shakllantirish kompleks vazifalar doirasida amalga oshiriladi. Bu esa maktabgacha taʼlim tashkilotlarida korreksion-pedagogik ishlarni individual, differensial, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvlar va texnologiyalarni taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son “Nogironligi boʻlgan shaxslarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019-yil maydagi PF-4312 sonli “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2024-yil 25-yanvardagi 46-son “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning taʼlim olishlarini tashkil etish va ularni rehabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda, innovasion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni maxsus va inklyuziv sharoitda oʻqitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning pedagogik, psixologik va tashkiliy-metodik aspektlari G.S.Abdullayeva, Sh.M.Amirsaidova, M.M.Arslonova, M.Y.Ayupova, L.R.Muminova, D.A.Nurkeldiyeva, V.S.Raxmanova, Sh.E.Toxtiyorova, U.Y.Fayziyeva, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova, R.Sh.Shomahmudova, F.U.Qodirova, D.B.Yakubjanovalar va boshqalarning izlanishlarida oʻrganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi olimlaridan Lev Vigotskiy, A.Meshcheryakova, S.Guseva, A. Kolupayeva, T. Lisovskaya, V. Pashkevich, G. Qadamova, A. Mukanova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida bolalarda nutqni rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari metodik jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlar Jan Jak Russo, Mari Montessori, Lev Vigotskiy, Jan Piaje va boshqalarning izlanishlarida bolaning tabiiy rivojlanishi, individual xususiyatlariga mos tarbiya, “Yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi, kognitiv

rivojlanish bosqichlari va ularga mos ta'lim, individual yondashuv va moslashtirilgan ta'lim dasturlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2023-2025 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning diagnostik komponent xususiyatlarini ochib berish;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning metodik modelini takomillashtirish;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutq kamchiliklarini korreksiyalash texnologiyalarini takomillashtirish;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqini korreksiyalash va rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarining 8 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan jami 175 nafar tayanch-harakat tizimida muammolari mavjud tarbiyalanuvchilar jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga doir ilmiy manbalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlari o'rganilib, kuzatuv, anketa so'rovnomalar, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bolalarda eshituv-nutqiy reaksiyasini shakllantirishga qaratilgan sensomotor resurslarni logoped va oilalarning korreksion-pedagogik pozitsiyasi ustuvorligida mikro muhit talablariga ko'ra adaptivlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashning metodik modeli harakatlar ritmini nutqiy muloqot parallelida rivojlantiruvchi sensomotorik diagnostikani individual prosodikani tashxislash va korreksiyalash

texnologiyalarining integratsiyalovchi “kognitiv gimnastika” mashqlariga bosqichma-bosqich singdirish asosida takomillashtirilgan;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutq kamchiliklarini korreksiyalash texnologiyalari okupatsion terapiyaga asoslangan alternativ muloqot mashqlarini ishlab chiqish hamda pedagogik va terapevtik muhitda nutqiy algoritmlar simulyatsiyasini kuchaytirish asosida takomillashtirilgan;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan 5-7 yoshli bolalar nutqini korreksiyalash va rivojlantirish didaktik ta‘minoti predmetli harakatlar ketma-ketligini nutqiy ifodalashga qaratilgan kinestetik ta‘sirni konstruktivlik imkoniyatlariga ko‘ra personal korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat trayektoriyasiga hamohang maqbullashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik hamda metodik aspektlari mazmuni va tarkibini o‘rgatuvchi hamda bolalar bilan ishlashning algoritmik tizimini takomillashtirishga mo‘ljallangan “Logopedik-korreksion ta‘sir” nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqildi;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalarning harakat ritmini me‘yorlashtirish va bu jarayonda ularning muloqot motivatsiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Quvnoq barmoqlar”, “To‘g‘ri nafas va talaffuz” nomli logopedik mashqlar tizimi ishlab chiqildi va maliyotga joriy etildi;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalarning nutq kamchiliklarini tashxis qilish va individual hamda frontal mashg‘ulotlarni olib borishda qo‘llaniluvchi okupatsion terapiyaga asoslangan alternativ muloqot mashqlarini o‘zida mujassamlagan “Mutaxassislikka kirish” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

logopedik mashg‘ulotlarda qo‘llaniluvchi nafas, ovoz, mayda qo‘l motorika mashqlarini bolaning yosh va individual xususiyatlariga ko‘ra adaptivlashtirishni bo‘lajak maxsus pedagoglarga o‘rgatishni ko‘zda tutuvchi “Nutqning ontogeneza rivojlanishi” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materialari to‘plami, Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi respublika hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, muammoning ijtimoiy-pedagogik, metodik tavsifini oydinlashtiruvchi o‘quv qo‘llanma nashr etilganligi, umumlashtirilgan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy, metodik g‘oyalarning inklyuziv va maxsus ta‘lim amaliyotining mazmuni va vazifalarini ifodalashga xizmat qilishi bilan belgilanadi hamda tajriba-sinov ishlarining haqqoniyligini, olingan natijalarning asoslilikini tasdiqlovchi ma‘lumotlarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik, takshiliy-metodik xususiyatlari maktabgacha ta‘lim tashkiloti va oilalar hamkorligiga hamda

logopedik ta'sirning korreksion-kompensatsion xususiyatlari bilan bog'liq holda ochib berilganligi, bolalarda nutqning impressiv va ekspressiv tomonlarini rivojlantirishga qaratilgan ritmik, senmomotor, umumiy va mayda qo'l motorika mashqlari modellari simulyativ ta'sir hamda reflektiv va autokorreksiya ustuvorligida ishlab chiqilganligi va nutq kamchiliklarini tashxislashning mayda motorika harakatchanligi, nutqning leksik va grammatik jihatlarini o'rganishga qaratilgan mezonlari ajratilganligi, bu mezonlar bo'yicha korreksion-rivojlantiruvchi muhitni ta'minlashning metodik tizimi personal adaptivlashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalari aniqlanganligi hamda tadqiqot natijasida taklif etilgan tavsiyalar va metodik ko'rsatmalardan maxsus va inklyuziv ta'lim amaliyotida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning malaka oshirish kurslarida, shu yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari bo'yicha tajriba-sinov ishlarini modellashtirishda, tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalarni maktabga nutqiy tayyorlash jarayonini didaktik takomillashtirishda tayanch metodik manbaa sifatida foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bolalarda eshituv-nutqiy reaksiyasini shakllantirishga qaratilgan sensomotor resurslarni logoped va oilalarning korreksion-pedagogik pozitsiyasi ustuvorligida mikro muhit talabalariga ko'ra adaptivlashtirishga oid takliflari "Nutqning ontogenezda rivojlanishi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 194-369-sonli guvohnoma). Natijada, tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlarini o'rgatish jarayoni didaktik ta'minlangan;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashning metodik modeli harakatlar ritmini nutqiy muloqot parallelida rivojlantiruvchi sensomotorik diagnostikani individual prosodikani tashxislash va korreksiyalash texnologiyalarining integratsiyalovchi "kognitiv gimnastika" mashqlariga bosqichma-bosqich singdirishga oid tavsiyalari "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining 2025-yil 7-oktyabrdagi 387-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 969801-sonli guvohnoma). Natijada, tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashning logoritmik, sensomotorik mashqlarini amaliyotga keng joriy etish imkoniyati yaratilgan;

tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutq kamchiliklarini korreksiyalash texnologiyalari okupatsion terapiyaga asoslangan alternativ muloqot

mashqlarini ishlab chiqish hamda pedagogik va terapevtik muhitda nutqiy algoritmlar simulyatsiyasini kuchaytirishga oid takliflaridan Farg‘ona teleradiokanalida efirga uzatilgan “Farovonlik sari” ko‘rsatuvi ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Farg‘ona viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 27-oktyabrdagi 01-12/221-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, okupatsion terapiyaga asoslangan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanishga o‘rgatishga oid tavsiyalarning keng ommalashishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy-uslubiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, shulardan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi keltirilib o‘tilgan bo‘lib, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, shuningdek tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar aks etgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf qilishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda muammoga doir nazariy ma’lumotlarning tahlili, tayanch-harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutq kamchiliklarini tuzatishning o‘ziga xos xususiyatlari va sog‘lom bolalarga nisbatan ularda uchraydigan ijtimoiy to‘siqlar haqida bayon etilgan. Tayanch -harakat tizimida muammolari bo‘lgan bolalar intellekti me‘yorda bo‘lsada, biroq korreksion-pedagogik jarayonga ehtiyoj sezadilar. Chunki ularning umumiy rivojlanishi sog‘lom bolalar kabi kechsada, nutqi, ruhiy holatida muayyan chetga chiqishlar namoyon bo‘ladi. Bu chetga chiqishlar bolalardagi harakatlanish muammolari bilan bog‘liqdir. Ularning o‘zidagi boshqalarga o‘xshamagan jihatni sezib, uning oqibatlarini his qilishi psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, uyalish, o‘zini namoyon qilishga, intellektual salohiyatidan foydalanishga intilmaslik kabilar. Shuning uchun tayanch harakati tizimida muammolari bo‘lgan bolalar nutqi ustida ishlash bu

bolalarning ta'limi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga egadir. Ularning muvaffaqiyatli ta'lim olishi, jamiyatda o'rin topishi, turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarda faol ishtirok etishga tayyorlashda maktabgacha ta'limning ahamiyati kattadir. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar qanchalik ta'limga erta jalb etilsalar, shunchalik ularda ijtimoiy ko'nikma va malakalar erta shakllanadi. Natijada ularning tengdoshlari bilan bir qatorda rivojlanishini ta'minlashga erishiladi.

Tayanch-harakat a'zolari jarohatlangan bolalarda serebral falaji, poliomiyelet (shol kasalligi asorati), tayanch-harakat a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi–artrogripoz, oyoq-qo'llarning majruhligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya – tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya – mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklarning yaxshi qisqarmasligi, qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaslik kabilar kuzatiladi. Bundan tashqari bu bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi. Bolalarda uchraydigan tayanch harakat tizimi kasalliklarida, xususan, bolalar serebral falajida harakat buzulishlari har xil namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda bolalar miya falajining quyidagi shakllari qayd qilingan: spastik diplegiya, spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemiplegiya, paraplegiya, monoplegiya, atonik-astatik sindrom. Bolalar miya falajining eng keng tarqalgan shakli spastik diplegiya. Bu shakldagi kasallik qo'l va oyoq harakatlarining buzilishi bilan karakterlanadi. Qo'l va oyoqlar erkin harakatining chegaralanishi yoki butunlay harakatsizlanishi mushaklarning kuchsizlanishi bilan birga kechadi.

Sog'lom bolalar kabi tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalarning ham kompleks rivojlanishiga erishishda nutqiy muloqotga o'rgatish ishlarini oilada va ta'lim tashkilotlarida olib borishga e'tibor qaratiladi. Chunki muloqot qilish jarayonida insonlar fikr almashadilar, ularning tafakkuri boyiydi, dunyoqarashi kengayadi. Biroq bu barcha bolalarda bir xil kechmaydi. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

1. Bolaning fiziologik rivojlanishida muammolari bor bo'lsa, ya'ni organizmning ontogenetik rivojlanishi me'yorda kechmasa, bu albatta, nutqiy rivojlanishga o'z ta'sirini beradi. Ayniqsa, bu holat bosh miya faoliyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'lsa, nutqiy muammolar kelib chiqadi.

2. Bolaning sensor rivojlanishida muammolari bor bo'lsa, ya'ni sezish organlari shikastlanishi o'zining ortidan nutqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

3. Oilada bola bilan muloqot qilmaslik, bola uchun ta'limiy rivojlanish muhiti yaratilmasligi ham nutqiy muloqot cheklanishini keltirib chiqaradi.

4. Oilada ko'p tilli muloqot ham bolalardagi muloqot ko'nikmalari shakllanishini sekinlashtiradi.

Keltirilgan va boshqa sabablar bolalarda nutqning rivojlanishini sekinlashtiradi. Natijada bolalarning intellektual rivojlanishida muammolar kelib chiqadi. Chunki nutqi me'yorda rivojlangan bolalar intellektual rivojlanishda ham zarur minimal talablarni bajara oladilar. Aksincha lug'at boyligi kam bo'lgan bolalarda esa, aqliy rivojlanish sustlashadi, pirovardida bolalar o'z

tengdoshlaridan bir qancha sohalarda ortda qoladilar. Masalan, o'zini namoyon qilish, fanlarni o'zlashtirish, o'zini boshqarish va tahlil qilish. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy integratsiyalashuvining muvaffaqiyati ularning shaxsiy xususiyatlariga bog'liqdir.

Mahalliy va xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, harakatlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlar mikroijtimoiy muhitning salbiy ta'siri va jismoniy nuqson mavjudligi sababli psixogen travma bilan bog'liq bir qator hal etilishi lozim bo'lgan psixologik muammolarga duch keladilar. Har bir muammoni korreksiyalashda nutq buzilishlarining xususiyatlarini bilish muhimdir. L.S.Vigotskiyning yozishicha: "nutq - bu avvalam bor, ijtimoiy muloqot vositasi, fikrni bayon etish va tushunish jarayoni". Sog'lom bolalar uchun nutq qanchalik zarur ijtimoiy hodisa bo'lsa, tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar uchun ham shunchalik zarurdir. Biroq sog'lom bolalar uchun aloqa vositasi bo'lsa, tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar uchun hayotda erkin harakatlanishga imkon beruvchi kompensatsiya vositasidir. Ular o'z ehtiyojlarini qondirishda atrofidagi insonlar bilan muloqot orqali o'z maqsadlariga erishishi oson bo'ladi. Bu jarayonda ularning bog'langan nutqi va fikrining jozibadorligi muhimdir. Shuning uchun S.L.Rubinshteyn nutqni muloqot, bayon etish va ta'sir etish faoliyati sifatida ko'rib chiqqan. "Nutq,- deb yozadi u,- ayrim insonlar uchun ong mavjudligining shakli, u tildan foydalanish jarayoni, nutq bu muloqot - bayon etish, ta'sir etish faoliyati, til orqali xabar berish demak. Nutq bu harakatdagi tildir". Bolaning rivojlanish dinamikasida nutq, motorika va ruhiy kasalliklarning o'zaro ta'sirini doimo hisobga olish muhimligi qator olimlarning izlanishlarida asoslab berilgan. Jumaladan, V.A. Levina serebral falajli bolalarda nutq rivojlanishi muammolarini o'rgangan, shuningdek, ushbu buzilishlarning psixologo-pedagogik tashxisiga asoslangan korreksiya ishlari tartibi hamda usullarini tadqiq qilgan. Nazariy ma'lumotlarni o'rganish orqali ishda tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan 5-7 yoshli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ochib beruvchi tavsiyalar umumlashtirildi. Bunda bolalarda eshituv-nutqiy reaksiyani shakllantirishga qaratilgan sensomotor resurslarning o'rnini kattaligi aniqlandi. Bolalar eshituv-nutqiy reaksiyasi asosan, logoped va oilalarning korreksion-pedagogik pozitsiyasi ustuvorligi namoyon bo'ladi. Chunki bola mavjud bo'lgan mikro muhit talablari aynan o'zaro muloqotga, bir-birini tinglashga undaydi. Mikro muhitning bola imkoniyatiga mos yo'naltirilganligi va unda muloqotga motivatsiyani kuchaytiruvchi logoped va oilalarning korreksion-pedagogik pozitsiyasini barqarorlashtirish lozim degan xulosaga kelindi.

Tayanch-harakat tizimida nuqsonlari bo'lgan bolalarda dizartriya nutq kamchiligi ko'p kuzatiladi. Xususan, bolalar serebral falaji bor bolalarda bu nutq kamchiligi tez-tez uchraydi. Amaliyotda tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlashda logopedlarning aynan dizartriya va uni bartaraf etishga oid metodik yordamga muhtojligi aniqlandi.

Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarning turi va og'irligiga ko'ra olib boriladigan korreksion ishlarning mazmuni differensial ravishda shakllantiriladi. Bu jarayon prognostik tavsifga

ham egadir. Korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligini ta'minlashda bir qator omillar va tamoyillarning o'rni kattadir. Aynan shularni inobatga olgan holda ishni tashkil etish tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni erta aniqlash, bartaraf etish yoki yumshatishga erishiladi. Xususiy omillar va tamoyillar: 1) to'g'ri tashxis tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarning samarali korreksiyasini amalga oshirish uchun avvalo nutq nuqsonlarining xarakteri, tarkibi va individual xususiyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan har tomonlama puxta diagnostikani o'tkazish lozim; 2) nutqiy yo'naltirilgan faoliyat - bolaning muayyan predmet bilan amalga oshiradigan harakati va uni nutqiy ifodalashidir. Nutqning rivojlanishi, xususan, lug'atning boyishida kattalarning nutqiy faoliyati va ularning bola tomonidan his qilinishidir. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni samarali bartaraf etishning ratsional yo'llarini tanlash uchun nutqiy nuqson xarakteri, uning darajasi va bu kamchiliklar nutqning komponentlariga qanday ta'sir etishini aniqlash muhim. Bunda ham faoliyatga yo'naltirilgan tashxis maydonga chiqadi; 3) tor doira mutaxassislar hamkorligi - har qanday logopedik ta'sirning natijadorligi. Masalan, tayanch-harakat tizimida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda tibbiy majmuaviy ta'sirga ko'p ehtiyoj tug'iladi. Bunday bolalar bilan logopedik ishda tonik reflekslarning nutq motorikasiga ta'sirini kamaytirish lozim. Bu holat logoped va nevropatolog hamkorligini talab etadi; 4) oiladagi qo'llab-quvvatlovchi muhit. Korreksion-pedagogik ishlarni samarali tashkil etishda bu omil muhimdir. Bola bilan logoped va shifokor qanchalik ishlamasin, biroq oilada bu ishlar takrorlanib, hayotiy vaziyatlarda mustahkamlanmas ekan, ishning natijasi ko'rinmaydi yoki uzoq muddatda namoyon bo'ladi. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarda qator tamoyillar yetakchilik qiladi: **rivojlanish, moslilik, tizimlilik, vaziyatboplik**. Bu tamoyillar nuqsonning kelib chiqishini evolyutsion-dinamik tahlil qilishni nazarda tutadi hamda muloqot jarayonida bolaning kommunikativ xulq-atvorini baholash, nutq nuqsonlarni tahlil qilish, bu nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish, shuningdek, ularning oldini olish va korreksiyalashning yo'llarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish o'ziga xos metodik tizim asosida olib boriladi. Bu tizimning asosiy bloki bu diagnostikadir. Shuning uchun biz o'zbek tili qonuniyatlariga mos takomillashtirilgan "Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqini tekshirish metodikasi"ni taklif etdik. Ushbu metodika tadqiqot ishining 2-bobi "**Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar og'zaki nutqini eksperimental o'rganish**" deb nomlangan bobida bayon etildi. Ushbu bobda mazkur toifa bolalar nutqini tekshirish mezonlarini tanlashda sog'lom bolalar nutqi rivojlanishini qiyosiy o'rganishning ahamiyati hamda o'rganish metodlari, usul va vositalari bayon etildi. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqish va mavjud samarali texnologiya va yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini aniq

natijaviy mo'ljal asosida olib borish maqsadida mazkur toifa bolalar nutqini diagnostika qilish bo'yicha metodik tizim ishlab chiqildi. Ushbu metodika asosida bolalar nutqini tekshirishga qaratilgan dastlabki tajribalar aynan amaliyotdagi muammolarni aniqlash hamda ularning sabablarini o'rganish orqali innovatsion texnologiyalarni tanlash va ishlab chiqishni maqsad qildi.

Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalarda nutqning shakllanish mexanizmini aniqlash uchun ichki nutq mohiyatini anglash muhimdir. Ichki nutq rus olimlarining izlanishlarida quyidagicha ta'riflanadi: "Ichki nutq fikrning iqtisodiy ta'minoti, inson ongi va aqliy faoliyati mexanizmi, nazariy va amaliy faoliyatni rejalashtirish demakdir" (N.I.Jinkin, A.N.Sokolov, A.A.Leontyev). R.A.Levina nutqning shakllanganligini yaxlit tekshirish va natijani to'g'ri tashxislash keyingi korreksion ishlarning samaradorligini ta'minlashda muhimligini ta'kidlaydi. U nutqni tekshirishning quyidagi komponentlarini alohida ajratadi va ular bo'yicha topshiriqlarni taqdim etish va natijalarni olish metodlari hamda yo'llarini joriy etdi: nutqiy ifodalar yaxlitligini tekshirish, tilning barcha tizimini kompleks analiz qilish, fonetik-fonematik-tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi va eshitish orqali farqlay olishini tekshirish, leksik, grammatik, semantik tahlil. Tadqiqot doirasida biz R.A.Levinaning metodik tizimi bo'yicha bir qancha mashqlar modellarini o'rganib tahlil qildik va o'zbek tili qonuniyatlari bo'yicha moslashtirdik:

1. Fonetik-fonematik darajani tekshirish. Bu tekshirish asosan, nutqda tovushlarning aytilishi va ularni eshitish orqali qabul qilish jarayonida uchraydigan buzilishlarni aniqlashga qaratiladi. Topshiriqlar: kattalar ortidan eshitgan so'z va bo'g'inlarni takrorlash. Olma, koptok, lola, mashina, non, shakar, baliq. So'zda ma'lum tovushning mavjudligini aniqlash va aytish. Mashina so'zida "sh" bormi?-savoli berilganda dastlab so'zni eshitish-aytish va "sh" bor deb aytish. Keltirilgan topshiriqlarning bajarilganda quyidagilarga e'tibor beriladi: artikulyatsiyaning to'g'riligi, tovushlarning almashinishi, tushirilishi yoki buzilishi, tovushlarni eshitish orqali farqlay olishi.

2. Leksik darajani tekshirish. Ushbu tekshirishning maqsadi bolaning so'z boyligini tahlil qilishdan iboratdir. Bunda bolaning faol va passiv so'z boyligi baholanadi. Tekshirishning bu komponenti uchun quyidagi topshiriqlar tizimi taklif etiladi: rasmlar orqali predmetlarni, harakatlarni nomlash, umumlashtiruvchi so'zlardan foydalanish. Keltirilgan topshiriqlarning bajarilganda quyidagilarga e'tibor berildi: lug'at boyligi, kerakli so'zni rasmdan topishi va olishi, so'zlarni nutqiy vaziyatga mos to'g'ri ishlatishi.

3. Grammatik darajani tekshirish. Ushbu tekshirishdan maqsad grammatik xatolarni aniqlashdan iborat. Bu nutqiy rivojlanganlik darajani tekshirish komponenti uchun quyidagicha topshiriqlar taqdim etiladi. So'zni birlik va ko'plik shakllarida tuzish, gapda so'zlarning kelishishi, berilgan so'zlardan gap tuzish. Keltirilgan topshiriqlarning bajarilganda quyidagilarga e'tibor beriladi: kelishiklardan foydalanishi, so'z yasalanishining to'g'riligi.

R.A.Levinaning nutqni tekshirish metodikasiga tayangan holda biz tayanch-harakat tizimida muammolari bor bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion-metodik tizimning diagnostika blokini takomillashtirdik. Bunda biz

deterministik yondashuvlarga ustuvorlik berdik. Ya'ni nutq buzilishlarining sababi va oqibatlarini o'rganish va bu o'rganish natijasida keyingi korreksiya ishlarini rejalashtirishni amalga oshirdik. Bolalar nutqini tekshirish uchun quyidagi mezonlar tanlab olindi: mayda qo'l motorikasining harakatchanligi, lug'at boyligi, nutqning grammatik tomonini tekshirish. Mazkur bolalarda nutqiy ko'nikma va malakalarning shakllanganligini o'rganishda nutqiy motorika, lug'at boyligi va nutqiy ifodalarning qay darajada rivojlanganligini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yo'l tayanch- harakati a'zolari falajlangan bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos korreksion ishlarini ketma-ketlikda olib borishga yordam beradi. Mayda qo'l motorikasining harakatchanligini tekshirish uchun "Qo'l va barmoqlar gimnastikasi"ga oid qo'llanmalardan foydalanildi. Bir qator mualliflar tomonidan tavsiya etilgan turli xildagi ko'rgazmali materiallarni bolalar serebral falajlanishiga ega bo'lgan, tayanch-harakat apparatida og'ir ko'rinishdagi muammoli bo'lgan, xususan, dizatrik bolalar uchun moslashtirdik. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanishini mayda qo'l motorikalar harakatchanligi bilan bog'liq ravishda o'rganish uchun bir qator nutq va harakat integratsiyasiga asoslangan mashqlarni tanlab oldik, masalan "**qalamlarni qalamdonga yig'**". Bu mashqning maqsadi bolalarning barmoqlar, kaft harakatlarini tekshirish, ularda harakatning muvofiqligini aniqlashdan iborat. Bunda "qizil qalamni ol va qalamdonga sol"- kabi topshiriq beriladi. Bu mashqni bajarish davomida bolalarga qalam ranglarini aytish ham taklif etiladi. Shunda bolalar talaffuzidagi kamchiliklarni turli erkin vaziyatda baholashga erishiladi.

Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini tekshirish bo'yicha 2-mezon bu lug'at boyligini tekshirish bo'lib, bu tekshirish asosan bolalarning nutqiy tajribalarini namoyon etadi. Ya'ni bolalar atrofidagi buyumlar, voqea-hodisalar, kishilarning nomlari va kasblarini bilishi va nutqda ulardan o'rinli foydalanishi o'rganildi. Tadqiqot davomida ushbu mezonga alohida urg'u berildi. Buning uchun maxsus mualliflik metodlaridan foydalanildi. Lug'at boyligini tekshirishda predmetlarning nomi, belgilarini aytish, bir nechta predmetlarni umumlashtiruvchi so'z bilan nomlash, kishilarning ismi va nima bilan shug'ullanishini aytish kabi topshiriqlarga ustuvorlik berildi.


Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini tekshirishning 3-mezoni-nutqning grammatik tuzilishini tahlil qilish uchun ham topshiriqlar tizimi tayyorlandi. Bola nutqining faollik darajasini uning monologik va dialogik nutqdan foydalanish imkoniyatlari belgilab beradi. Bundan tashqari, bolaning nutqiy muomalada tashabbuskorligi she'r, ashula bilishi, bilmasligi ham hisobga olinadi. Bolaning faqat nutqi emas, balki uning psixologik xususiyatlari, aqliy rivojlanish holati ham o'rganib boriladi. Tekshirish jarayonida bola faoliyati, uning qiziqishi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikdan ta'sirlanishi, qiyinchilik xarakteri va uni bartaraf etishga intilishini hisobga olish zarur. Bolani charchatib qo'ymaslik shuningdek, bola faoliyatining faollik darajasini pasaytirmaslik uchun tekshirish vaqtida ish turlari

o'zgarib turiladi. Tekshirishlar hamma vaqt individual bo'lishi kerak. Bolalar nutqini grammatik tuzilishini tekshirishda bola yoshiga mos ko'rgazmali materiallardan foydalanishga e'tibor berildi. Tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashda ota-onalarning pedagogik savodxonligi, pedagoglarning metodik kompetensiyalari muhimdir. Bu ikki omilsiz tayanch-harakat tizimida muammolari bo'lgan bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini amaliyotga samarali joriy etish qiyin. Shuning uchun amaliyotga tavsiya etilgan metodik modelning alohida komponenti sifatida oilalarga metodik yordamni tashkil etish va korreksiya ishlarini samarali tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish kabilar tanlandi.

